



БУХОРО ДАВЛАТ ТИББИЁТ
ИНСТИТУТИ



ISSN 3030-3877

DOI Journal 10.26739/3030-3877

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

3 ЖИЛД, 1/1 СОН

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

ТОМ 3, НОМЕР 1/1

КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

VOLUME 3, ISSUE 1/1



ТОШКЕНТ-2026

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

Sh. J. Teshayev

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharriri, Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori, t.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

D. A. Xasanova

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharrir o'rinbosari, Buxoro davlat tibbiyot instituti anatomiya va klinik anatomiya kafedrasida professori, DSc

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

- **U.K. Abdullayeva** - “Klinik fanlar yilnomasi” jurnali mas'ul kotibi, Buxoro davlat tibbiyot instituti fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasida dotsenti, DSc;
- **M.J. Sanoyeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti nevrologiya kafedrasida dotsenti, DSc
- **A.G. Gadayev** - Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-son ichki kasalliklar kafedrasida professori, t.f.d.
- **A.R. Obloqulov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **D.A. Nabiyeva** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb kasalliklari kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **Sh.T. O'roqov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti xirurgik kasalliklar kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **M.M. Karimov** - Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi “Gastroenterologiya” ilmiy laboratoriyasi boshlig'i, t.f.d., professor
- **N.U. Narzullayev** - Buxoro davlat tibbiyot instituti otorinilaringologiya kafedrasida professori, DSc
- **G.N. Sobirova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi reabilitatsiya va jismoniy tarbiya kafedrasida professori, t.f.d.
- **F.S. Raupov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar xirurgik kasalliklari kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **Sh.B. Axrorova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, nevrologiya kafedrasida dotsenti, DSc.
- **V.R. Akramov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti travmatologiya va neyroxirurgiya kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **I.K. Sadulloeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar kasalliklari propedevtikasi va bolalar nevrologiyasi kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **M.K. Temirova** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Nevrologiya va bolalar nevrologiyasi, tibbiy genetika kafedrasida assistenti PhD

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

- **G.J. Jarilkasinova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash kafedrasida professori, DSc
- **U.S. Mamedov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti onkologiya kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **A.A. Saidov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrasida professori DSc
- **N.N. Karimova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti 3-son akusherlik va ginekologiya kafedrasida mudiri, DSc, dotsent
- **U.K. Qayumov** - tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini oshirish markazi ichki kasalliklar kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **M.E. Raximova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti, t.f.d.
- **R.I. To'raqulov** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrasida professori, t.f.d.
- **Ch.S. Pavlov** - I.M. Sechenov nomidagi birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti terapiya kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **L.B. Novikova** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrasida professori, t.f.d.
- **O.I. Letyayeva** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrasida professori, t.f.d.
- **I.V. Reverchuk** - I.Kant nomidagi Boltiq federal universiteti psixonevrologiya va psixosomatika kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **Edip Gonullu** - Izmir Bakirchay universiteti anesteziya va reanimatsiya kafedrasida dotsenti, t.f.d.
- **Eva Lietto** - Italiya Campania universiteti “Luigi Vanvitelli”ning tarjima tibbiyot fanlari kafedrasida mudiri, t.f.d., professor
- **G.S. Xodjiyeva** - Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot universitetining Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida dotsenti

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 369/6 от 5 апреля 2025 г.

© Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

О журнале

Журнал зарегистрирован в Агентство информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан № С-239963 от 14 марта 2024 года


Адрес редакции: Республика Узбекистан, 200114, г. Бухара, ул. Гиждуван, 23
Телефон: +998(65)2230050
Сайт: <https://tadqiqot.uz/index.php/spjacad>
e-mail: abumkur14@gmail.com

1. Abdullayeva Z.F., Xidoyatova D.N. O`tkir ishemik hurujlar tezligi va ishemik insult rivojlanishi xavfi.....	6
2. Avezov B.B., Sadiyev E.S., Avezova D.B. Tajribaviy revmatoidli artritda 12 oylik oq zotsiz kalamushlar periferik limfa tugunlaridagi morfologik o`zgarishlar.....	11
3. Baymuradov R.R., Teshayev Sh.J. Temir tanqisligida 6 oylik oq zotsiz kalamushlarda buyrak morfologiyasi.....	16
4. Karimova M.A., Esamuratov A.I. Ayollar qin mikrobiotasini baholashning zamonaviy mikrobiologik usullari.....	21
5. Madaminova G.I., Ismailov B.M. Tajribaviy gipotireoz chaqirilgan urg`ochi kalamushlardan tug`ilgan avlodda urug`donlarning morfologik xususiyatlari.....	32
6. Majidova N.U., Botirova N.B., Omonov Sh.A., Madjidova Y.N. Structural and functional remodeling of skeletal muscle after botulinum therapy in children with cerebral palsy (clinical and physiological study).....	41
7. Matyakubov B.B. Bachadon atoniyasi sababli massiv akusherlik qon ketishida onalar o`limini kamaytirish usullari.....	46
8. Narzulaeva U.R. Tungi apnoe sindromi etiopatogenezi, klinikasi, zamonavi diagnostika va davolash strategiyalari.....	50
9. Pulatova Sh.H., Shodiqulova G.Z., Kenjaev M.L. Diabetik nefropatiyaning yurak yetishmovchiligi bilan birga kechgan patalogiyaning genetik va epigenetik asoslari.....	55
10. Qodirjonov I.Z. Implant qo`yishdan avvalgi tayyorgarlik va profilaktika usullarining samaradorlikka ta`siri.....	61
11. Raxmonova G.E., Eshmuradov E.A. Jigar exinokokkozini zamonaviy tashxisiga qarashlar (adabiyotlar sharhi).....	66
12. Raxmatov A.A. Bolalarda adenoidlar vegetatsiyasi II-darajasini konservativ davolash taktikasi.....	73
13. Sharipova N.S., Jabbarov O.O. Clinical and functional characteristics of renal dysfunction in patients with chronic obstructive pulmonary disease in combination with arterial hypertension.....	77
14. Tuxtayeva N.X., Ko`ziboyev S.Q. Ko`krak bezi saratonining rivojlanishi hamda kasallikning hozirgi kunda yosharib borishi sabablari.....	83

15. Yusupov A.P., Qo‘ziyev O.J. Immunizatsiya qilingan tajriba quyvon modelida brutsellyoz ta’sirida jigardagi patomorfologik o‘zgarishlar.....	89
16. Yusupov Sh.R., Umirov S.E., Buriyev A.Y., Sadullayev S.E. Surunkali virusli C gepatiti bilan kasallanishning epidemiologik xususiyatlari.....	94
17. Yusupova I.A. O‘smirlarda coxa vara patologiyasini davolashda bajariladigan koreksiyalovchi osteotomiya operatsiyasi.....	100
18. Алимова Н.П., Хасанова Д.А. Возрастные и половые особенности морфометрической организации глоточной миндалины у детей второго периода детства.....	106
19. Асадова Н.Ш., Рахимова Г.Н. Сахарный диабет 2 типа и когнитивные нарушения: обзор современных данных.....	112
20. Бобониязов К.К. Орфанные заболевания генетической природы: современные достижения молекулярной диагностики, терапевтические перспективы и опыт Узбекистана.....	117
21. Жумаев А.Х. Ортопедик стоматологик реабилитация жараёнида кекса ёшли беморларнинг оғиз соғлиғи билан боғлиқ ҳаёт сифатини ОНП-14 сўровномаси орқали динамик баҳолаш.....	121
22. Зарипов Ш.Ш., Султонова Н.А., Зарипова Д.Я. Основные акушерские осложнения связанные с антифосфолипидным синдромом (обзор литературы)	138
23. Зияходжаева Л.У. Объективная оценка формирования двигательных и психоречевых функций у детей с перинатальным поражением головного мозга.....	143
24. Каримов М.М., Каримова Д.К., Абдуллаева У.К., Таджиходжаева Ю.Х., Ешимбетов О. 2025 йилда Ўзбекистон аҳолиси орасида Helicobacter pylori инфекциясининг тарқалиши.....	147



UO'K 616.31:616.21

Qodirjonov Ikromjon ZokirovichFarg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Farg'ona, O'zbekiston
<https://orcid.org/0009-0004-8728-5789>**IMPLANT QO'YISHDAN AVVALGI TAYYORGARLIK VA PROFILAKTIKA
USULLARINING SAMARADORLIKKA TA'SIRI** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19819473>

Annotatsiya: Mazkur maqolada dental implantatsiya oldidan amalga oshiriladigan profilaktik tayyorgarlik chora-tadbirlarining klinik samaradorlikka ta'siri o'rganildi. Tadqiqot davomida bemorlar ikki toifaga ajratilib, keng qamrovli profilaktik tayyorgarlikdan o'tkazilgan hamda qisqa tayyorgarlik bilan implantatsiya qilingan holatlar taqqoslab o'rganildi. Olingan natijalar og'iz bo'shlig'ining sanitatsiyasi, yallig'lanishni bartaraf etish, periodontal to'qimalarni tiklash va og'iz gigiyenasini yaxshilash implantlarning muvaffaqiyatli osteointegratsiyasini ta'minlashda asosiy omil ekanligi tasdiqlandi. Shuningdek, profilaktik choralar qo'llanilgan bemorlarda periimplant asoratlar chastotasi sezilarli darajada kamaygani aniqlandi.

Kalit so'zlar: dental implantatsiya, profilaktik tayyorgarlik, osteointegratsiya, periimplantit, og'iz bo'shlig'i sanitatsiyasi, periodontal to'qimalar, gigiyena, infeksiya nazorati, klinik samaradorlik

Кодиржонов Икромжон ЗокировичФерганский институт общественного здравоохранения, Фергана, Узбекистан
ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-8728-5789>**ВЛИЯНИЕ ПРЕДИМПЛАНТАЦИОННОЙ ПОДГОТОВКИ И
ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ МЕРОПРИЯТИЙ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЛЕЧЕНИЯ**

Аннотация: В данной статье изучено влияние профилактических мероприятий, проводимых перед дентальной имплантацией, на клиническую эффективность лечения. В ходе исследования пациенты были разделены на две группы, в которых проведена сравнительная оценка результатов имплантации после комплексной подготовки и при минимальной подготовке. Полученные результаты показали, что санация полости рта, устранение очагов инфекции, лечение заболеваний пародонта и улучшение гигиенического состояния способствуют успешной остеоинтеграции имплантатов. Также установлено значительное снижение частоты периимплантных осложнений у пациентов, прошедших профилактическую подготовку.

Ключевые слова: дентальная имплантация, профилактическая подготовка, остеоинтеграция, периимплантит, санация полости рта, пародонт, гигиена, контроль инфекции, клиническая эффективность

Ikromjon Zokirovich Kodirjonov

Fergana medical institute of public health, Fergana, Uzbekistan

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-8728-5789>

THE IMPACT OF PRE-IMPLANTATION PREPARATION AND PREVENTIVE MEASURES ON TREATMENT EFFECTIVENESS

Abstract: This article examines the impact of preventive measures carried out prior to dental implantation on the clinical effectiveness of treatment. The study involved dividing patients into two groups and conducting a comparative analysis between those who underwent comprehensive pre-implantation preparation and those with minimal preparation. The results demonstrated that oral cavity sanitation, elimination of infectious foci, periodontal treatment, and improvement of oral hygiene significantly contribute to successful osseointegration of implants. Additionally, a notable reduction in peri-implant complications was observed in patients who received preventive preparation.

Keywords: dental implantation, preventive preparation, osseointegration, peri-implantitis, oral sanitation, periodontal tissues, hygiene, infection control, clinical effectiveness

Kirish. Bugungi kunda rekonstruktiv stomatologiyada dental implantatsiya yo‘qolgan tishlarni tiklashning eng samarali va keng qo‘llanilayotgan usullaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. So‘nggi ilmiy kuztuvlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, implantatsiyaga qadar og‘iz bo‘shlig‘ini sog‘lomlashtirish, yallig‘lanish holatlarini yo‘qotish, og‘iz gigiyenasi tozalik darajasini yaxshilash hamda bemorning klinik holatni baholash implantning uzoq muddatli davomiyligiga erishish muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuni ta’kidlash lozimki, suyak to‘qimasining holatini aniqlash, kerakli vaziyatlarda qayta tiklash usullarni ishlatish ham implant natijalarini yuqori darajada oshiradi. Aynan ushbu holatlar tish implantatsiyasida dastlab qilinadigan profilaktik chora-tadbirlar, ya’ni yallig‘lanish oqibatlarini oldini olish, implant birikishini kuchaytirish va davolash uzluksizligini samarali ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ishida implant qo‘yishdan avvalgi tayyorgarlik va profilaktika usullarining ahamiyati hamda ularning davolash samaradorligiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Hozirgi zamonaviy stomatologiyada dental implantatsiya samaradorligini kuchaytirish muammosi bir qancha ilmiy tadqiqotlar markazida bo‘lib, ayniqsa implantatsiya oldidan profilaktik hozirlikning ahamiyati keng o‘rganib chiqilmoqda.

Xorijiy ilmiy manbalarda implantatsiya muvaffaqiyati operatsiyadan oldingi infeksiya nazorati, periodontal to‘qimalar holati va og‘iz gigiyenasi darajasi bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlangan. Xususan, Esposito M. va hammualliflar tomonidan olib borilgan tizimli tahlillarda profilaktik choralar qo‘llanilgan bemorlarda periimplant asoratlar chastotasi sezilarli darajada kamayishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [1]. Shuningdek, tadqiqotchlar Lindhe J. va Meyle J. tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda periodontal va periimplant to‘qimalarning sog‘lom holati implantning uzoq muddatli funksional barqarorligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida baholangan [2]. Tahlil etilgan qarashlarda, implantatsiya oldidan tizimli yondashuv zarur ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, turli ilmiy izlanishlarda dental implantatsiya natijalari atrof to‘qimalarning morfofunktsional holati bilan uzviy bog‘liqligi aniqlangan. Xususan, Rybalko A.S. tomonidan olib borilgan dissertatsion tadqiqotda implantatsiya natijalarini prognozlashda atrof to‘qimalarning sitologik holatini baholash muhim diagnostik mezon sifatida asoslangan [3]. Tadqiqot natijalari sog‘lom to‘qimalarda implantatsiya muvaffaqiyati yuqori bo‘lishini, yallig‘lanish mavjud holatlarda esa asoratlar rivojlanish ehtimoli ortishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Ilyasova S.T. tomonidan o‘tkazilgan klinik-mikrobiologik tadqiqotlarda implantatsiya oldidan profilaktik va davolash choralarini kompleks qo‘llash yallig‘lanish asoratlari rivojlanishining oldini olishda samarali ekanligi aniqlangan [4]. Muallif tomonidan mikrobiologik muhitni normallashtirish va infeksiya o‘choqlarni bartaraf etish implant muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Mamlakatimizda ham ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar dental implantatsiya samaradorligini oshirishda muhim omillarni aniqlashga qaratilgan. Xususan, tadqiqotchi J.A. Rizayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda og‘iz bo‘shlig‘ining klinik holatini kompleks baholash, infeksiyon o‘choqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish stomatologik aralashuvlar, jumladan implantatsiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishida muhim bosqich sifatida ko‘rib chiqilgan [5]. Tadqiqot natijalarida og‘iz bo‘shlig‘ining sanitatsiyasi yetarli darajada amalga oshirilgan holatlarda operatsiyadan keyingi yallig‘lanish asoratlari sezilarli darajada kamayishi aniqlangan.

Shuningdek, X.P.Komilov tomonidan o‘tkazilgan ilmiy izlanishlarda endodontik infeksiyalarni bartaraf etish va ildiz kanallarini sifatli dezinfeksiya qilish og‘iz bo‘shlig‘idagi mikrobiologik muhitni barqarorlashtirishga xizmat qilishi asoslab berilgan [6]. Mazkur holat jarayon oldidan zarur tibbiy ahamiyat kasb etib, infeksiya darajasining kamayishi implantga yaqin to‘qimalarda yallig‘lanish holatlari rivojlanishining oldini olishga yordam berishi ta‘kidlangan.

Materiallar va metodlar. Mazkur tadqiqot dental implantatsiya oldidan amalga oshiriladigan profilaktik tayyorgarlikning davolash samaradorligiga ta‘sirini kompleks o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, klinik, instrumental va qiyosiy-tahliliy metodlar asosida olib borildi. Tadqiqot stomatologik amaliyot sharoitida, implantatsiya rejalashtirilgan bemorlar ishtirokida tashkil etildi.

Tadqiqotda jami 40 nafar bemor ishtirok etdi. Bemorlar 25-55 yosh oralig‘ida bo‘lib, ularning umumiy somatik holati qoniqarli deb baholandi. Tadqiqotga jalb etishda og‘iz bo‘shlig‘ida tishlar yetishmasligi, implant qo‘yishga tibbiy zarurat borligi, hamda bemorning ruxsati bosh omil sifatida olindi. Og‘ir somatik kasalliklar, faol yallig‘lanish jarayonlari va implantatsiyaga qarshi ko‘rsatmalar aniqlangan bemorlar tadqiqotdan chiqarildi.

Bemorlar ikki guruhga ajratildi:

1. asosiy guruh - implantatsiya oldidan to‘liq profilaktik tayyorgarlikdan o‘tkazilgan bemorlar (20 nafar);
2. nazorat guruhi - minimal tayyorgarlik bilan implantatsiya bajarilgan bemorlar (20 nafar).

Asosiy guruhda quyidagi profilaktik choralar kompleks tarzda amalga oshirildi, ya‘ni professional og‘iz gigiyenasi (tish toshlari va yumshoq qoplamalarni olib tashlash), kariyes va uning asoratlarini davolash, periodontal kasalliklarni bartaraf etish, antiseptik vositalar bilan og‘iz bo‘shlig‘iga ishlov berish hamda individual gigiyena bo‘yicha tavsiyalar berish. Shuningdek, suyak to‘qimasining holati yetarli bo‘lmagan hollarda regenerativ muolajalar qo‘llanildi.

O‘rganish jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish samarali deb topildi:

- klinik tekshiruv orqali og‘iz bo‘shlig‘i va periodontal to‘qimalar holatini baholash;
- gigiyenik indekslar (OHI-S, GI, PI) yordamida gigiyena darajasini aniqlash;
- rentgenologik tekshiruvlar (ortopantomogramma va kompyuter tomografiya) orqali alveolyar suyakning zichligi va hajmini baholash;
- laborator tahlillar yordamida yallig‘lanish ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- implantatsiyadan keyingi bosqichda bemorlarni dinamik kuzatish va asoratlarni monitoring qilish.

Implantatsiyadan keyingi davrda bemorlar 1 oy, 3 oy va 6 oy davomida kuzatildi. Ushbu davr mobaynida implantning osteointegratsiya darajasi, yumshoq to‘qimalarning holati va yallig‘lanish belgilarining mavjudligi baholandi. Olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, guruhlar o‘rtasidagi farqlar qiyosiy tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama. Mazkur o‘rganilgan ishning natijalari dental implantatsiyadan oldin tashkil etilgan profilaktik tayyorgarlikning davolash samaradorligiga bevosita va sezilarli ta‘sir ko‘rsatishini aniqladi. Xususan, asosiy guruhda og‘iz bo‘shlig‘ining to‘liq sanitatsiyasi, yallig‘lanish o‘choqlarining bartaraf etilishi hamda gigiyenik holatning yaxshilanishi natijasida implantatsiyadan keyingi davr yengil kechdi. Ushbu guruhdagi bemorlarning aksariyatida yumshoq to‘qimalarning holati barqaror bo‘lib, yallig‘lanish reaksiyalari minimal darajada kuzatildi va implantlarning osteointegratsiya jarayoni fiziologik me‘yorlarda kechdi. Aksincha, nazorat guruhida profilaktik tayyorgarlik yetarli darajada olib borilmagani sababli operatsiyadan keyingi davrda

og'riq, shish va yallig'lanish reaksiyalari nisbatan ko'proq kuzatildi. Olingan klinik va qiyosiy natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

№	Ko'rsatkichlar	Asosiy guruh (%)	Nazorot guruhi (%)
1.	Osteointegratsiya darajasi	93%	78%
2.	Yallig'lanish simptomlari	12%	36%
3.	Periimplantit holatlari	5%	18%
4.	Gigiyenik ko'rsatkich	88%	62%

1-jadval. Asosiy va nazorat guruhlarini o'rtasidagi klinik ko'rsatkichlar taqqoslanishi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, asosiy guruhda implantatsiya muvaffaqiyati 90% dan yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich sezilarli darajada past bo'lib, 75-80% atrofida qayd etildi. Shu bilan birga, yallig'lanish holatlari va periimplantit belgilari nazorat guruhida deyarli ikki baravar ko'p uchraganligi aniqlandi. Bu esa implantatsiya oldidan profilaktik tayyorgarlikning yetarli darajada olib borilmagani bilan izohlanadi.

Ayni paytda alohida e'tibor qaratish joizki, gigiyenik holat darajasi tahlil natijalari ham mavjuda farqlarni tasdiqladi. Eksperimental guruhda oral gigiyena holati yuqori holatda bo'lib, bu yallig'lanish jarayonlarning rivojlanishini cheklashga kamaytirishga yordam bergan. Shu bilan birga, nazorat guruhida esa gigiyena darajasining qoniqarsizligi yallig'lanishning davomiyligiga va jarrohlikdan so'ng nojo'ya holatlar kuchayishiga sharoit yaratdi. Shu bilan birga, rentgenologik tekshiruvlar asosiy guruhda alveolyar suyakning barqarorligini ko'rsatgan bo'lsa, nazorat guruhida ayrim hollarda suyak rezorbsiyasi va implant atrofida patologik o'zgarishlar aniqlangan.

Tahlil ko'rsatkichlari, dental implantatsiya bosqichida tayyorgarlik davri muhim ahamiyat kasb etishi isbotlandi. Jarrohlikdan oldin og'iz bo'shlig'idagi infeksiya manbalarini bartaraf etish, periodontal to'qimalarni sog'lom holatga keltirish hamda bemorlarga to'g'ri gigiyena ko'nikmalarini singdirish implantning muvaffaqiyatli suyak bilan barqaror birikishida muhim ta'sirga ega. Bundan tashqari, suyak to'qimasining holatini oldindan aniqlashga va zarur hollarda boshqa davolash usullarini qo'llash so'nggi natijalar samaradorligini oshirishda muhim hisoblanadi.

Xulosa. Aniqlangan ko'rsatkichlar implant qo'yishdan oldingi tayyorgarlik jarayoni davolashning klinik samarasi to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilishi tasdiqlandi. Og'iz bo'shlig'ini sanitatsiya qilish, yallig'lanish manbalarini bartaraf etish, periodontal to'qimalarni qayta tiklash va gigiyenik talablarga amal qilish implantlarning barqaror integratsiyasi uchun asosiy omil hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida eksperimental guruhda ijobiy natijalar aniqlandi, jarrohlikdan keyingi asoratlar kam hollarda aniqlandi. Aksincha, tayyorgarlik yetarli darajada tashkil etilmagan holatlarda yallig'lanish jarayonlari, periimplantit yallig'lanish belgilari va implant barqarorligining kamayishi ko'proq uchradi.

Xulosa o'rnida qayd etish lozimki, tadqiqot ishlari implantatsiya bosqichida har bir bemorga alohida yondashuv muhim ekanligini ko'rsatdi. Bemorning umumiy salomatligi va oral soha holatini keng qamrovda o'rganish, gigiyena madaniyatini shakllantirish va suyak holatini aniqlash uzoq muddatli samarali natijalarga bevosita bog'liq bo'ladi. Lozim bo'lgan vaziyatlarda regenerativ metodlarni tadbiq etish esa implantatsiya samarasini sezilarli darajada oshiradi. Natijada, dastlab olib borilgan samarali profilaktik choralar davolash jarayoni muvaffaqiyatining ahamiyatli omili sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Esposito M., Grusovin M.G., Worthington H.V. Interventions for replacing missing teeth // Cochrane Database of Systematic Reviews.
2. Lindhe J., Meyle J. Peri-implant diseases // Journal of Clinical Periodontology.
3. Рыбалко А.С. Патологическое обоснование прогноза исхода дентальной имплантации... – 2023.

-
- 4.Ильясова С.Т. Клинико-микробиологическое обоснование профилактики и лечения осложнений дентальной имплантации. – 2020.
 - 5.Rizayev J.A. Terapevtik stomatologiya. – Toshkent, 2023.
 - 6.Komilov X.P. Terapevtik stomatologiyada endodontiya asoslari. – Samarqand, 2013.

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

Научно-практический журнал по всем
направлениям медицины
основан в 2024 году
Бухарским государственным
медицинским институтом
Выходит один раз в 3 месяца
Учредитель Бухарский государственный
медицинский институт